Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

UDK: 372.511:371.3
ORCID: 0000-0001-7762-8953

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI KAMOLOTIDA QADRIYATLARNING O'RNI

Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna
Termiz davlat pedagogika instituti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
E-mail. dilruz-73@mail.ru

Annotatsiya: O'quvchilarning ta'lim-tarbiya jarayonida har tomonlama barkamol insonlar bo'lib yetishishini ta'minlash masalasiga mamlakatimizda alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Bugungi kunda boshlang'ich ta'limda tub yangilanishlar amalga oshirilayotganini hisobga olgan holda maqolada mamlakatimiz taraqqiyoti har tomonlama barkamol insonlar shaxsini shakllantirish, ularning ongida yangicha dunyoqarashni, mustaqil fikrlashni, mustaqil yashashni, mustaqil ishlashni hamda ahloqiy fazilatlarini yuksak darajada shakllantirishda qadriyatlarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish maqsad qilingan. Maqolaning asosiy maqsadidan kelib chiqqan holda o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda qadriyatlarning ahamiyatini o'rganishda turli ilmiy va pedagogik manbalar qiyosiy tahlil qilingan, xulosalar chiqarishda foydalanilgan. Mazkur tahlillar asosida maqolada qadriyat va uning mazmuni, boshlang'ich sinf o'quvchilari kamolotida qadriyatlarning roli pedagogik-psixologik muammolari ochib berilgan.

Qadriyatlar boshlang'ich sinf o'quvchilik davridan boshlab, ularning o'zlari uchun muhim bo'lgan ijtimoiy hayot ob'yektlari va hodisalarini idrok etishlari orqali shakllana boshlashi borasida asosli xulosalar keng bayon etilgan.

Kalit so'zlar: qadriyat, ta'lim, tarbiya, aksiologiya, faoliyat, ehtiyoj, motivatsiya, qiziqish, o'quv-tarbiya jarayoni, shaxs rivojlanishi.

РОЛЬ ЦЕННОСТЕЙ В РАЗВИТИИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Аннотация: В нашей стране уделяется большое внимание всестороннему развитию учащихся в процессе обучения и воспитания. В связи с тем, что в системе начального образования происходят значительные изменения, в этой статье мы рассмотрим особенности ценностей, которые способствуют развитию разносторонне развитых людей. Мы исследуем, как ценности влияют на формирование нового мировоззрения, самостоятельного мышления и способности к самостоятельной жизни и работе. Также мы обсудим важность развития высоких нравственных качеств у учащихся. Для того чтобы понять значимость ценностей в воспитании и обучении, мы провели сравнительный анализ различных научно-педагогических исследований. На основе этого анализа мы раскрыли педагогико-психологические аспекты ценностей и их содержания, а также роль ценностей в развитии учащихся начальных классов.

Мы пришли к выводу, что ценности начинают формироваться уже в младшем школьном возрасте через восприятие значимых объектов и явлений общественной жизни. Этот процесс является важным для полноценного развития личности.

Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

Ключевые слова: ценность, образование, воспитание, аксиология, деятельность, потребность, мотивация, интерес, образовательный процесс, развитие личности.

THE ROLE OF VALUES IN THE DEVELOPMENT OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Annotation: In our country, we place great importance on the holistic development of students during the process of education and upbringing. Given the significant changes taking place in the primary education system, this article will explore the characteristics of values that contribute to the cultivation of well-rounded individuals. We will delve into how values influence the shaping of a new worldview, independent thinking, and the ability to live and work autonomously. Additionally, we will discuss the significance of fostering high moral qualities in students. To understand the significance of values in education and training, we conducted a comparative analysis of various scientific and pedagogical studies. Through this analysis, we identified the pedagogical and psychological aspects of values and their content, as well as their role in the development of primary school students.

We have concluded that values begin to form at a young age, during the primary school years, through the perception of significant objects and phenomena in public life. This process is crucial for the holistic development of an individual.

Key words: value, education, upbringing, axiology, activity, need, motivation, interest, educational process, personality development.

KIRISH. Kelajak avlodga talim-tarbiya, ilm berish, uni ijtimoiy hayot va faoliyatga tayyorlashning asosiy xususiyatlardan biridir. Talim - tarbiya orqali yosh avlodning milliy qadriyatlar sirasiga kiruvchi axloqiy fazilatlari mustahkamlanadi, jamiyatdagi g'oyaviy, mafkuraviy jarayonlarga nisbatan munosabati o'zgaradi va yetuk shaxs bo'lib yetishishida g'oyalar paydo bo'ladi. Shaxsning ijtimoiy mavqyeini aniqlashda, davlatning ijtimoiy-siyosiy tizimini isloh qilish, ijtimoiy tartib va barqarorlikni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy nazoratni amalga oshirishda ta'lim-tarbiya jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim jarayonida kelajak avlodning jamiyatga moslashuvini ta'minlash, ularda qadriyatlar iyerarxiyasini anglash, qadriyatli munosabatlarga doir ko'nikmalarni shakllantirish, shuningdek, shaxs qadriyatlar tizimini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj yanada kuchaymoqda. Qadriyatlar falsafasi hamda pedagogik aksiologiya shaxs va jamiyat integratsiyasini ta'minlovchi omil ekanligini asoslash, qadriyatlar tizimi, ularning shakllanishi va pedagogik mazmuni, qadriyatli yondashuv asosida ta'lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotini tahlil qilish, zamonaviy yondashuvlardan kelib chiqib, boshlang'ich sinf o'quvchilarida qadriyatli yondashuvni shakllantirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish muhim ahamiyatga ega.

Jamiyatimizda umuminsoniy qadriyat-larga hurmat, azaliy milliy yondashuv sanaladi. Xalqimizga xos bo'lgan mehmondo'stlik, birodarlik, do'stlik, sadoqat, umuminsoniy hamjihatlikning negizini tashkil etadi. Umuminsoniy manfaatlarga milliy tiklanish g'oyasining uyg'unlashuvi istiqlolga erishgan vatanimiz tashqi va ichki siyosatining o'zagini tashkil etadi. Milliy o'zlikka egalik, ozodlik, hurriyatni qo'ldan bermaslik, uni oliy qadriyat deb bilish milliy mentalitetimizning negizidir. "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" tamoyiliga asoslangan milliy qadriyatlarni singdirish, o'quvchilarni har tomonlama, jismoniy, ruhiy, ma'naviy-axloqiy

rivojlantirish orqali ijtimoiy hayotga moslashtirish va turli murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgatish, bunda ijtimoiy-gumanitar fanlarning imkoniyatlaridan keng foydalanish”[1] tarbiya fanini o‘qitishning asosiy vazifalari sifatida belgilangan. Shunday ekan, boshlang‘ich sinfdanoq o‘quvchilarni ezgulikka yo‘g‘rilgan qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularga vatanparvarlik g‘oyalarini singdirish muhimdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Hammamizga ma’lumki, har qaysi xalq o‘z farzandlarini milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashga alohida e’tibor qaratib bu borada bor kuch shijoatini ayamaydi, chunki har bir xalqning o‘tmishi, yashash muhiti uning ko‘p asrlik qadriyatlarini bugungi kun yoshlari tomonidan qadrlanishi va ular orqali keyingi avlodga yetib borishini astoydil istaydilar.

Ta’kidlash joizki, ta’lim-tarbiya maskanida mutafakkirlar yaratgan bebaho ma’naviy-pedagogik merosdan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ular tomonidan yaratilgan tarbiyaviy qadriyatlar, kelajak avlodni axloqiy jihatdan tarbiyalashda hamon dolzarb bo‘lib turibdi. Bu meros yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol shaxs sifatida shakllantirish, ularga to‘g‘ri ta’lim-tarbiya berishga xizmat qiladi, chunki, ular ta’limotida inson odobi, axloqi, iymon-e’tiqodi, vijdoni, erkinligi, oila, farzand tarbiyasi masalalari nazariy va amaliy ahamiyatini yo‘qotmagan. Ularning tarbiyaviy qadriyatlari, pand-nasihatga oid asarlari bugungi kunda ham yoshlar ta’lim-tarbiyasiga ulkan hissa qo‘shib kelmoqda.

G‘arb falsafasida qadriyatlar muammosi qadimgi Gresiyada ilmiy-nazriy qarashlar yuzaga keldi. Suqrot aksiologiyaning asosiy masalasini “Ne’mat nima?” degan savol bilan ifodalagan bo‘lsa, Demokrit “Baxt-saodat, ezgulik, adolat, go‘zallik mezonlari tabiatning o‘zida, hamma narsaning o‘z tabiiy oqimida ketishidadir. Nimaiki tabiatga mos bo‘lsa yaxshi, nimaiki unga zid bo‘lsa-yomon. Bizning huzur-halovatimiz va azoblarimiz, qoniqishimiz va noroziligimizning asosi ana shunda” deydi. Aflotun esa qadriyatlarni g‘oyada, ijobiy fazilatlarda, go‘zallik, haqiqat va uyg‘unlik sifatida ta’kidlaydi [2, 134-b.].

Qadimgi Xitoy falsafasida ham qadriyatli g‘oyalar Konfusiylik ta’limotida “insonparvarlik”, “hamdardlik” singari unsurlarda mavjud bo‘lgan. Konfusiylikning asosiy tamoyili shunday: “O‘zingga ravo ko‘rmaganingni o‘zgalarga ravo ko‘rma” [3, 71-b.]. Shuningdek, axloqning asosida - fuqaroning podshohga, xotinning erga, o‘g‘ilning otasiga, kichikning kattaga hurmati va bo‘ysunishi” ta’kidlangan.

Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto” da ko‘plab qadrlash, asrab avaylash kabi jihatlar qatiy qonunlar bilan belgilab qo‘yilgan. Aynan yer, olov, suv va havo, butun borliq va axloqiy uchlik qadrlangan va bunga amal qilishgan [1, 74-b.].

Sharq mutafakkirlarining ta’limiy va tarbiyaviy qadriyatlari, boy pedagogik merosi, kelajak avlod ta’lim-tarbiyasiga oid qarashlari, ayniqsa, odob-axloq, insof, diyonat, iymon, e’tiqod, vijdon, mehnatsevarlik, ilmsevarlik, insoniylik xususidagi g‘oyalari barkamol shaxsni har tomonlama va uyg‘un rivojlantirishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, ularning ta’limiy-axloqiy qarashlarida asosiy o‘rin tutgan ilmsevarlik, vatanparvarlik, erkinlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, iymon-e’tiqodlilik, halollik, axloqiy poklik, odillik, birodarlik, hurfikrlilik kabi barkamol inson tarbiyasiga xos g‘oyalarni yosh avlod ongiga singdirish muhim didaktik qimmatga ega.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi 422-son “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 07.07.2020-y., 09/20/422/1033-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son

Kaykovusning "Qobusnoma" asarida inson o'z tanasi, qalbini toza va pokiza tutishi uning uzoq va sog'lom hayot kechirishi uchun muhim ahamiyat kasb etganligi bayon qilingan. Mazkur asar kelajak avlodni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularni har tomonlama yetuk shaxs sifatida shakllanishlariga yo'naltirilgan nazariy yondashuvlar va amaliy tavsiyalarni taqdim etgan, shuning uchun Kaykovusning ushbu asari hozirgi kungacha ham o'z qiymatini yo'qotmagan. Shuningdek bu asar har bir o'qituvchi-murabbiylar uchun dasturulamal bo'lib xizmat qiladi.

Kaykovus asarlarida har bir shaxsda mujassam bo'lishi lozim bo'lgan to'g'riso'zlik, insonparvarlik, muruvvatlilik, saxovatlilik, rostgo'ylik, vatanparvarlik, adolatparvarlik, sabr-qanoatlilik kabi shaxsiy sifatlar bo'lsagina unday kishilar barkamol shaxs darajasiga yetishlari ta'kidlangan.

Shuningdek, "Qobusnoma"da – "... agar biror kishi kajlikka (qing'irlik, yolg'onchilik) odat qilgan bo'lsa, uning yoniga bormagilki, u hargiz rost so'zlamas. Nedinkim, bir daraxt egri bo'lsa, to uni chopib yonmaguncha u to'g'ri bo'lmas" [6, 46-b.]. Mazkur fikrlar tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchining nima yaxshi-yu, nima yomonligini anglashiga, ijobiy individual qadriyatlar tizimining shakllantirishga o'z vaqtida ahamiyat qaratilishi zarurligini uqtiradi.

Q.Nazarov "Qadriyat - voqelikdagi muayyan hodisalarning, umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan falsafiy-sosiologik va aksiologik tushuncha" [8, 42-b.]. Qadriyat insoniyat uchun eng kerakli bo'lgan mavjud narsa va hodisalar: sog'lik, tinch-totuvlik, erkinlik, ezgulik, teng huquqlilik, adolat va haqiqat, ma'rifat, madaniyat, ilm, moddiy va ma'naviy boyliklar, tarixiy obida va yodgorliklar, go'zallik, axloqiy fazilatlar, urf-odatlar, an'ana, marosim, udum va ijobiy fazilatlar hisoblanadi.

V.Karimovaning ta'kidlashicha, "Faoliyat – ehtiyoj – motivatsiya" tushunchalari o'zaro bog'liqdir. Har qanday faoliyat ortida insonning aniq ehtiyoji mavjud bo'lib, bu shaxsni o'rab turgan muhitga bog'liq bo'ladi. Shu ehtiyoj ta'sirida paydo bo'ladigan faollikning turtkisi – motivdir. Muallifning fikricha, motivatsiyalashgan tizim birligi – bu motivdir. Tuzilish jihatidan motivlar ikki xil farqlanadi: "xohish-istakli" va "haqiqiy" [5, 15-b.]. Qadriyatli yondashuvni shakllantirish shaxs motivasion tizimi bilan uzviy bog'liqdir.

E.G'.G'oziyev har bir inson oliy qadriyat ekanligini ta'kidlab, insonning ongi hayvonlardan farq qilishini ta'kidlaydi. U psixikaning yuqori bosqichi insongagina xos bo'lgan, uning eng yuksak darajasi hisoblanmish ongda o'z aksini topadi deydi. Shuningdek, "Shaxsning boshqa kishilarga, tabiatga, jamiyatga, ashyolarga qadriyatlarga nisbatan munosabatlari mavjud mezonlarga asoslansa, muayyan qoidalarga bevosita amal qilinsa, har bir narsaga oqilona, odilona va omilkorlik bilan yondashilsa, ongning nazorat funksiyasi hukm surayotganligidan dalolat beradi"[4, 52-b.]. Shunday ekan, qadriyat insonlarning olamga bo'lgan munosabatini, uning ichki ehtiyojlari va voqelikka munosabati bilan uyg'unlashuvi asosida yuzaga keladi.

O.Musurmonovaning fikricha "Qadriyatlar - inson tomonidan qadrlanadigan narsalardan iborat bo'lib, kishilarning talabi, xohishi, qiziqishi va maqsadi asosida o'zaro munosabat, o'zaro ta'sir (atrof-muhit bilan, insonlar bilan) natijasida dunyoga keladigan holatdir" [7, 87-b.].

Demak, yuqorida keltirilgan asarlardagi fikrlar qator teranligi, ma'nosining chuqurligi, farzand ta'lim-tarbiyasi, inson hayoti manfaatlariga yaqinligi bilan barcha davr va jamiyat uchun muhim didaktik qimmatga ega. Ular insonning kundalik hayoti, ta'lim-tarbiyasidagi fikrlari bilan pedagogika va ilm-fan taraqqiyotiga chuqur ta'sir ko'rsatadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Mamlakatimizda ro'y berayotgan o'zgarishlar ta'lim jarayoni ob'yekti va sub'yekti hisoblangan kelajak avlodning insoniy fazilatlari shakllanishiga ta'siri katta. Shuni nazarda tutgan holda kelajak avlodning ta'lim-tarbiya jarayonida har tomonlama barkamol shaxs bo'lib yetishishini ta'minlash masalasiga jamiyatimizda alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya" Konsepsiyasi shu paytgacha jamiyatda shakllangan qarashlarni o'zgartirishni ko'zda tutadi. Jumladan, ijtimoiy ongda "o'quvchi tarbiyasining mevasi keyin, maktabni bitirib, katta bo'lganida ko'rinadi", degan qarash bor. Bu fikrga qo'shilib bo'lmaydi, chunki hayotda o'quvchi necha yoshda bo'lsa, shu yoshga mos xulq kutiladi. Kutish oqlansa, maqtov, oqlanmasa, tanqid aytiladi.

Mustaqillik inson qadri, uning manfaati va inson qadri, uning ehtiyojlari bilan bog'liq masalalarni dolzarblashtirib yubordi. Inson qadri uning ijtimoiy xususiyatlari, yurtimizda amalga oshirgan faoliyati, boshqalarga va atrof-muhitga munosabati, kamolotga yetganligi, ijtimoiy xususiyatlarni o'zlashtirib olganligi va ularni ma'naviy qiyofasida namoyon qila olganligida ham ko'rinadi. Q.Nazarov "O'quvchining shaxsga aylanishi, o'z qadrini va o'zgalar qadrini anglash jarayoni uzoq yillar davom etadi. Umuman, uchinchi ming yillikda butun dunyoda qadrlash falsafasining umuminsoniy mezonlarini amaliyotda qo'llashga ehtiyoj kuchaydi. Tabiiyki, inson zoti sayyoramizda yashagan ilk davridan boshlab qadr va qadriyatni ustuvor bilganida, Yer yuzining zamonaviy manzarasi butunlay boshqacha tus olgan, kishilikni ekologik bo'ronlar, urush xavfi va ma'naviy tanazzul kabi umumbashariy muammolar kutib turmagan bo'larmidi?" deb ta'kidlagan. [8, 57-b.].

Albatta, boshlang'ich sinf o'quvchisining ma'naviyati, xulqi birdaniga yaxshi yo yomon bo'lib qolmaydi. Har bir yoshdagi o'quvchining xarakterida fazilat yoki illatning o'sha yoshdagi darajasi namoyon bo'ladi. Har kuni o'quvchi bilib-bilmay ota-onasi yoki o'qituvchini yo xursand qiladi, yo ranjitadi. Shunday bo'lmaganida kattalar o'quvchilarga "xushmuomala o'quvchi", "qilig'ingni to'g'rila", "mehribon qizaloq", "bezori o'quvchi", "ishyoqmas o'quvchi", "qo'rqmas o'quvchi", degan baholarni berishmas edi. Bu esa o'quvchining tarbiyalanganlik darajasi keyin emas, ayni paytdagi munosabatlarida, xulqida har kuni namoyon bo'lishini isbotlaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida eng avvalo, ma'naviy va ma'rifiy qadriyatlarni o'zlashtirishga bo'lgan zaruriyat va talabni qaror toptirish lozim. Ular o'zining hayotiy faoliyatlarida milliy va ma'naviy qadriyatlarimizga bo'lgan qiziqish va ehtiyojni his etishlari kerak. Shu jihatdan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, maktabda o'qitilayotgan barcha fanlarning asosiy maqsad va vazifasi o'quvchilarda milliy, ma'naviy, umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan qiziqish va shaxsiy ehtiyojni shakllantirishda o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Boshlang'ich sinflarda qadriyatlar tizimi o'quvchining atrof olamga, boshqa odamlarga, o'z-o'ziga munosabati shakllanishining asosini tashkil etadi. Shuningdek, o'quvchi shaxsi yo'nalganligining mazmuniny jihatini tashkil etib, dunyoqarashning asosi, ehtiyoj va motivatsion jihatining negizini tashkil etadi. Qadriyatlar tizimining shakllanishi erta yoshdan boshlanib, insonnig shaxsiy va hayotiy o'z-o'zini anglash bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv-tarbiya jarayoni muvaffaqiyatida o'quvchining ichki ehtiyojlari, motivlari, bilimlarni egallashi, bilim va ko'nikmalari, qadriyatlariga munosabat alohida ahamiyatga egadir.

Faoliyat va xulq-atvorga motivasion va qadriyatli yondoshishi masalalari taniqli psixolog V.G.Aseyeva, L.A.Bloxinoy,

A.N.Leontyeva, V.N.Myasishyea, A.N.Piyanzina, S.L.Rubinshteynlarning tadqiqotlari predmeti bo‘lib xizmat qilgan. Ularning tadqiqotlarida o‘quvchilarda qadriyatlarni shakllantirishning bir qator mexanizmlari ko‘rib chiqilgan.

O‘yin faoliyatining yetakchiligidan, o‘quv-o‘yin faoliyatiga o‘tishda, ancha anglanilgan, faoliyatda anglanilganlikning rivoji bilan bog‘liq, shaxsiy yangilanishlarning shakllanishi ro‘y beradi. Kichik maktab yoshi – intensiv intellektual rivojlanish yoshi hisoblanadi. Intellekt bu davrda boshqa barcha psixik jarayonlarning rivojlanishini, psixik jarayonlarning intellektuallashuvi, ularni anglash va ixtiyoriyligini ta’minlaydi. Bu davrda o‘quv faoliyati o‘quvchi psixikasining barcha jihatlariga juda katta talablar qo‘yadi va buning ta’sirida o‘quvchilarda qadriyatlar tizimining mazmuni takomillashadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida qadriyatlar tizimining shakllanishiga ikkita, ya’ni ob’yektiv va sub’yektiv omillar ta’sir ko‘rsatadi. Ob’yektiv omillarga ta’lim muassasasining moddiy-texnik bazasi, yaqin atrofidagi olamning holati, sub’yektiv omillarga esa, o‘quvchilarning psixofiziologik xususiyatlari, ularning motivlari va xususiyatlarining o‘ziga xosligi kabilar kiradi. Sub’yektiv omillar esa bevosita o‘quvchi shaxsining individual xususiyatlari, qiziqishlari, yo‘nalganligi kabilar bilan bog‘liq holda rivojlanadi.

Pedagogik kuzatishlarning ko‘rsatishicha, o‘qishga nisbatan ijobiy munosabat boshlang‘ich sinf o‘quvchilik davrining oxirlariga kelib, birmuncha pasayish ko‘zga tashlanadi. O‘quv faoliyatiga qiziqish - 1-2-sinflarda ko‘tarilib, 3-4-sinflarda pasayadi. O‘quv faoliyatiga qiziqishning pasayishida o‘qituvchining tayyor materialni bayon etishi va o‘quvchilarning yodlab olishlari ustanovkasi ustunlik qiladi va o‘quvchilarning faolliklari taqlid qilish xarakterida bo‘ladi. 3-4-sinf o‘quvchilari odatda o‘qilganlarni qayta hikoya qilib byorishni, doskada yozilgan mashqni ko‘chirib yozishni, qoidalar va she’rlarni yodlashni yoqgirmaydilar va aksincha, misol va masalalarni mustaqil ravishda yechishni, tabiat hodisalarini kuzatishni, rasm chizish va plastilin va loydan narsalar yasash ishlarini yaxshi ko‘radilar. Boshqacha aytganda, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar tashabbus va mustaqillik imkoniyati bor bo‘lgan ishlarga ko‘proq qiziqish bildiradilar. Kichik maktab yoshida o‘qishga qiziqishning pasayish sabablaridan biri sifatida V.A.Suxomlinskiy o‘qituvchi tomonidan past bahoning ko‘p qo‘yilishi, bu esa o‘quvchida o‘qishga nisbatan qiziqishning pasayishi va o‘z imkoniyatlariga nisbatan bo‘lgan ishonchning pasayishida deb biladi.

Yuqoridagi holat tahlilidan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida qadriyatlar tizimining shakllanishi ko‘p jihatdan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining qadriyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Aynan o‘qituvchi shaxs va mutaxassis sifatida o‘quvchilarni ijtimoiy munosabatlar, madaniyat olamiga olib kiradi, ularni insoniyat tomonidan yaratilgan ma’naviy boyliklar va yangi yutuqlari bilan bog‘laydi. O‘qituvchi faoliyatining qadriyatli mo‘ljallari o‘quvchilar ta’lim faoliyatining natijalarida ko‘rinadi. Bu tadqiq etilayotgan muammoning yana bir tomonidir. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari qadriyatlari tizimining empirik eksperimental tadqiqi zamonaviy boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining aniq qiyofasini shakllantirish, ustun va ahamiyati past bo‘lgan qadriyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida qadriyat – bu o‘quvchi, uning atrofidagilar va ta’lim faoliyati uchun ijobiy xususiyatlarga ega bo‘lgan voqea hodisalarning ahamiyati, o‘quvchilarning psixologik-pedagogik tavsifi, ijtimoiy hayotiy hodisa bo‘lib, ularga nisbatan qadriyatli yondashuv, avvalo, o‘z-o‘zini va o‘zgalarni anglashi, faoliyat motivlarining shakllanishi, uning mazmunini tushunishini ta’minlaydi va hayotida sodir bo‘layotgan

hodisalarga qadriyat sifatida qarashni shakllantiradi, o‘zini namoyon qilish, kreativ fikrlash sifatlarini oshiradi.

XULOSA. Qadriyatlar tizimi boshqa yoshda bo‘lgani kabi kelajak avlod shaxsi va uning shakllanganligining muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi. Qadriyatlar tizimining rivojlanganlik darajasi, ularning shakllanish xususiyatlari “boshlang‘ich sinf o‘quvchisining qadriyatlar barqarorligi” misolida shaxsining rivojlanganligi, yaxlitligi va barqarorligi haqida xulosa chiqarish imkonini bera oladi.

Boshlang‘ich sinflarda kelajak avlod shaxsi tavsifining mazmuniy bo‘lagini tashkil etuvchi qadriyatlari spesifikasining ta’siri va rivojlanish xususiyatlarini ta’lim samaradorligiga ta’sirini o‘rganish ularning shakllanish yo‘llari, shuningdek, faol hayotiy pozitsiyasini belgilashga xizmat qiladi. Shu tufayli keyingi yillarda turli yoshdagi o‘quvchilar qadriyatlarining rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganishga e’tibor kuchaymoqda. Shu bilan birgalikda boshlang‘ich sinflarda qadriyatlarning dinamik o‘zgarish xarakterini aniqlamasdan ularning keng miqiyosli va ko‘pbosqichli shakllanishini o‘rganish mukin emas.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini savodxonligini oshirishda shaxsiy qadriyatli yondashuv asosida ta’lim-tarbiya berish orqali, ularda o‘qishga qiziqish va intilishlarini, o‘quv topshiriqlarini mustaqil bajarishlarini ta’minlashga erishish mumkin. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘quv faoliyati yetakchi faoliyat sifatida bilimlarni belgilangan tizimda o‘zlashtirishini ta’minlaydi, o‘quvchilarning savod o‘rganishi uchun zarur usullarni egallashga shart-sharoit yaratadi. Bu jarayonda o‘qituvchiga o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishda, ularni hayotga va ijtimoiy mehnatga tayyorlashdek ustivor rolni egallash muhim kasb etadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi uchun o‘qituvchi har doim hayotga va mehnatga sodiq siymo bo‘lib qoladi.

.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Avesto: tarixiy-adabiy yodgorlik / N.Jo‘rayev (A.Mahkam tarjimasi). – Toshkent.: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, 2015. – 732 b.
2. Ahmedova M. Falsafa. Darslik. - Toshkent.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – 433 b.
3. Древнекитайская философия. Том 1. – Москва, 1992. - С.167.
4. G‘oziyev E.G‘. Psixologiya. Darslik. II-nashr. – Toshkent.: “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008.
5. Karimova V.M., Abdig‘afforov B.T., Akramova F.A. Tashkiliy xulq: Ma’ruzalar matni. – Toshkent.: 1999. – B.150.
6. Kaykovus. Qobusnoma. –T.: Yangi asr avlodi, 2016. -224 b.
7. Musurmonova O. Yuqori sinf o‘quvchilari ma’naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari: Ped.fan.dok. ...diss. – Toshkent, 1993. – 364 b.
8. Nazarov Q. Falsafa qomusiy lug‘at. - Toshkent.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2004. – 472 b.